

“DUNYONING ISHLARI” ASARIDAGI TOPONIMLARNING LEKSIK - SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Ismoilova Gulmira

NamDU Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi.

Email: gulmiraismoilova04@gmail.com

Havasxon Solixo‘jayeva

Ilmiy rahbar.

f.f.f.d (PhD), dotsent v.b.

Email: solihodjayevaxavasxon@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13371730>

Annotatsiya. O’tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi joy nomlarining leksik-semantik, funksional-stlistik xususiyatlari yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Onomastika, toponimika, toponim, toponimik birlik, onomastik birlik, joy nomlari, urbononim, xoronim, godonim, gidronim, agronim.

LEXICAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF TOPOONYMS IN THE WORK OF "THE WORKS OF THE WORLD"

Abstract. The lexical-semantic, functional-stylistic features of place names in O’tkir Hashimov’s short story “Works of the World” were highlighted.

Key words: Onomastics, toponymy, toponym, toponymic unit, onomastic unit, place names, urbononym, choronym, godonym, hydronym, agronym.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ТОПОНИМОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ДЕЛА МИРА»

Аннотация. Выделены лексико-семантические, функционально-стилистические особенности топонимов в рассказе Откира Гашимова «Произведения мира».

Ключевые слова: Ономастика, топонимия, топоним, топонимическая единица, ономастическая единица, топонимы, урбоним, хороним, годоним, гидроним, агроним.

Badiiy asar tilining onomastik tadqiqi orqali – atoqli otlarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash, yozuvchining badiiy mahoratini ochib berish, onomastik birliklarning linvostlistik, funksional xususiyatlarini belgilash imkoniyati yaratiladi. Bu esa onomastik birliklar superko‘lamining boyishi uchun xizmat qiladi.

Badiiy asar qiymatini belgilashda toponimik birliklarning o‘rni beqiyosdir. Buni biz O’tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” asaridagi toponimlar tadqiqi misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Toponimika – tilshunoslikning onomastika tarkibiga kiruvchi sohasi sifatida joy nomlarining kelib chiqishi, nomlarning saqlanib qolishi, rivoji va vazifaviy xususiyatlarini o‘rganadi. Toponimlarga (yunoncha topos – joy, o‘rin + onoma atoqli ot) – yer yuzasining quruqlik qismida joylashgan tabiiy-jug‘rofiy va sun’iy (inson yaratgan) obyektlarning atoqli otlari kiradi.

Mazkur atoqli otlar qanday obyektning nomini ifodalashiga ko‘ra o‘z ichida quyidagi turlarga bo‘linadi: **Urbononim** (lot. Urbanus – shaharga oid + onoma – atoqli ot) – shahar ichida joylashgan har qanday topografik obyektlar atoqli oti kiradi.

Ular quyidagilar: **Agoronim** maydon, bozorlarning atoqli oti hisoblanadi. **Xoronim** har qanday hududning, jumladan, viloyatlar, tumanlar, ma'muriy-hududiy birliklar, tarixiy o'rirlarning atoqli oti. **Godonim** – shahardagi ko'cha, shoh ko'cha, torko'cha, bulvar (Ikki tomonlama harakatli ko'cha o'rtasidagi keng xiyobon), xiyobon, suv qirg'oqlari, sohillari va b.

"Dunyoning ishlari" qissasida toponimik birliklar salqmoqli o'rin egallaydi. Mazkur asarda ro'y bergan voqealar rivoji tasvirlanayotgan hududga oid toponimlarda ma'lum bo'ladi.

Asarda qatnashgan joy nomlari o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh so'zlardan farq qiladi. Shuningdek, toponimlarda milliy tilimizga xos bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko'proq saqlanganligi bilan ahamiyatli bo'ladi. Mazkur joy nomlarining tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg'uloti, qazilma boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishi uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Dastlab "Dunyoning ishlari" asaridagi joy nomlarini ob'yektlarning katta va kichikligiga ko'ra mikro va makrotoponimlarga ajratishimiz mumkin:

Makrotoponimlar – keng hududlar, katta ob'yektlar (*Moskva, Toshkent, Namangan, Jizzax, Kavkaz, Ashxobot, Chirchiq*) ning atoqli otlari;

Mikrotoponimlar – kichik ob'yektlar (*Do'mbrobod, Beshyog'och, Beshqo'rg'on, Leninobod, Laylaktepa, Chilonzor, Qozirobod, Jinko'cha, Qorasuv, Qonqus, Qaynama buloq, Ko'kterak, Tezakob, Qizil maydon, Qaymoq bozor, Shirmoy bozor, Somon bozor*) kabilar.

Ushbu toponimlarni o'z ichida qanday ob'yektning nomini ifodalashiga ko'ra bir necha turlarini quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

Urbononim	<i>Moskva, Toshkent;</i>
Xoronim	<i>Namangan, Jizzax, Kavkaz, Ashxobot, Chirchiq, Asaka;</i>
Godonim	<i>Do'mbrobod, Beshyog'och, Beshqo'rg'on, Leninobod, Laylaktepa, Chilonzor, Qozirobod, Qorasuv, Jiydazor;</i>
Gidronim	<i>Qonqus (anhor), Qaynama buloq, Darxon arig'i;</i>
Agoronim	<i>Ko'kterak, Tezakob, Qizil maydon, Qaymoq bozor, Shirmoy bozor, Somon bozor.</i>

Demak, yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, asardagi toponimlar urbononim, xoronim, gadonim, gidronim, agoronimlarni tashkil etadi. Mazkur toponimlarni leksik-semantik tahlili asardagi ayrim izohga muhtoj toponimlarni ochib berishga yordam beradi.

Bunday toponimlar ko'p miqdorni tashkil qiladi. Asarda shunday toponimlar borki, ularni biz kundalik hayotimizda qo'llamaganmiz. Bunday toponimlar kitobxonda savol keltirib chiqaradi. Asardagi onomastik birlikni leksik-semantik tahlili orqali voqealar rivojini ushbu joy nomiga bog'liq jihatlarini yoritib berishi va yashirin jihatlarini topishi uchun xizmat qiladi.

Masalan: *Qonqus* gidronimi hozirda ham mavjud bo'lib, U Toshkent shahrini oralab o'tuvchi Anhor suvini ikkiga "Qonqus" va "Chala" ariqlariga bo'lib beradi. Mazkur arig' nomi

bilan ataluvchi qishloq hozirgi Zangiotada joylashgan hududni o‘z ichiga oladi.¹ Qishloqning tarixi mazkur hikoya bilan boshlanadi: bir kambag‘al dehqon yigit mashaqqatlar bilan ariq qaziysi.

Mazkur ariqdagi loyqa suvdan ichib, qon qusgan holda jon beradi. Shuning uchun Qonqus – qon qusib jon bergan yigitning voqeasidan so‘ng bu joyning nomi Qonqus bo‘lib qolgan. Mazkur ariq nomi ikki mustaqil so‘zning birikuvidan hosil bo‘lib, o‘zining afsonaviy tarixiga ega ekanligi bilan diqqatga sazovordir. Qonqus yozuvchining boshqa asarlarida ham kelganligi bilan ahamiyatlidir. Ko‘rinadiki, mazkur toponim nominativ vazifadan tashqari joy nomining tarixi haqida ham ma’lumot berish, ya’ni kummulyativ (axborot berish) xususiyatlari bilan ham qimmatlidir.

Shunday nomlardan yana biri Chilonzor toponimidir. *Chilonzor* – “*Yo ‘Ining shundoqqina bo‘yida oqish yaprog‘ini chang bosgan, tikanlari “tish qayrab” turgan chakalakzor – chilon jiydalar (shuning uchun bu yerni Chilonzor deyiladi).*” Ushbu keltirilgan parchada joy nomini yozuvchi tomonidan izohi berib ketiladi. Bu, albatta, kitobxonadagi asar voqealariga qo‘sishimcha tarzdagi – joy nomi bilan bog‘liq tasavvurlarni hosil qilish, joyning geografik ko‘rinishi, areli haqidagi axborotni kengaytirish uchun xizmat qiladi. Aynan bu kabi sharhlar yozuvchining toponimik ma’lumot va axborotga ega ekanligidan darak beradi.

Asardagi toponimlar grammatick jihatdan ham qimmatlidir. Ularni tuzilishiga ko‘ra sodda va murakkab toponimik tasnifiy guruhlarga ajratib tahlil etishimiz mumkin. Xususan, sodda toponimlar o‘z ichida ikki: qo‘sishchali va qo‘sishchasiz toponimlarga ajraladi. Qo‘sishchali toponimlar: **-kat, -kent** (*Toshkent, Parkat*), **-obod** (*Do‘mbirobod, Qozirobod, Leninobod*), **-zor** (*Jiydazor, Chilonzor*). Qo‘sishchasiz toponimlar: *Moskva, Kavkaz, Asaka*.

Shuningdek, asardagi toponimlarni tarkibiy tuzilishiga ko‘ra: **1. Bir asosli** – *Namangan, Moskva Toshkent, Qonqus, Chirchiq, Parkat, Chilonzor, Jizzax, Kislovodska, Jiydazor; 2. Ikki asosli* (qo‘shma) – *Do‘mbirobod, Beshqo‘rg‘on, Beshyog‘och, Ashxobod (Asgabat; arab. – oshiq va fors – obod), Leninobod, Laylaktepa, Qozirobod, Qorasuv, Ko‘kterak, Jinko‘cha* kabi guruhlarga ajratishimiz mumkin.

Asardagi ikki asosli (qo‘shma) toponimlarni morfologik jihatdan quyidagi tasnifiy guruhlarga ajratish mumkin:

1.	OT – OT	<i>Do‘mbirobod, Laylaktepa, Ashxobod, Qozirobod, Jinko‘cha;</i>
2.	SIFAT – OT	<i>Ko‘kterak, Qorasuv;</i>
3.	OT – SIFAT	<i>Leninobod;</i>
4.	SON – OT	<i>Beshyog‘och, Beshqo‘rg‘on;</i>
5.	OT – FE’L	<i>Qonqus.</i>

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi nomlarning ma’nosida mazkur joyda yashovchi aholining xarakteri, o‘ziga xos xususiyatlarini aks etishga harakat qilgan. Mazkur nomlarda aholining qadriyatlari qarashlari, e’tiqodi yashiringan bo‘lib, ular badiiy matnda yozuvchining mahoratiga

¹ www.fayllar.org.

qarab namoyon bo‘ladi, ya’ni toponimlardagi bu xususiyatlarni ochilish yoki ochilmasligi yozuvchining badiiy uslubi va mahorati bilan bog‘liqdir.

O‘tkir Hoshimovning badiiy mahorati shundaki, u asar mazmunini boyitish va yoritishda onomastik birliklardan unumli va o‘rinli foydalana olgan. Bunga yozuvchining onomastik birliklar xususan, toponimlarni qo‘llash stilistikasi orqali yana bir karra guvoh bo‘ldik.

Demak, asardagi toponimik birliklar (joy nomlari) o‘zining uslubiy funksiyasi, qo‘llanish o‘rni, hududlar ketma-ketligi, reallligi bilan ahamiyatli va qimmatlidir.

REFERENCES

1. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006.
2. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari qissasi – Toshkent, 2018.
3. T.Nafasov. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug’ati – Toshkent, 2007.
4. Begmatov E., N.Uluqov. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug’ati. –
5. Namangan, 2006.
6. <https://e-library.namdu.uz>.
7. www.fayllar.org.